



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY VA FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-AMALIY TAHLILI

Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

abdullayevdilshodbek1992@mail.ru

+99899-497-55-77

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish masalasi dolzarb muammo sifatida nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: O'quvchilar, fuqaro, faol fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasi, ta'lim, tarbiya, faol fuqarolik, tarbiya metodlari.

THEORETICAL-PRACTICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL AND CIVIC COMPETENCES IN HIGH SCHOOL STUDENTS

Abstract: This article analyzes the issue of developing social and civic positions in high school students as a topical problem from a theoretical and practical perspective.

Keywords: Students, citizen, active citizenship, civic position, education, upbringing, active citizenship, upbringing methods.

ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНЫХ И ГРАЖДАНСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТАРШЕКЛАСНИКОВ

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос формирования социальных и гражданских позиций у старшеклассников как актуальная проблема с теоретической и практической точек зрения.

Ключевые слова: студенты, гражданин, активная гражданская позиция, гражданское положение, образование, воспитание, активная гражданская позиция, методы воспитания.

KIRISH

Bugungi yosh avlod davlatimiz mustaqilligi va taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan juda katta kuch sanaladi, shu bois umumta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash; o'smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo'lishi; ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini

namoyon qilish motivlarining rivojlanishi; fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishini inobatga olinishi[1] lozim bo'lgan jihatlariga e'tibor qaratish ko'zda tutilmoqda.

"Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da[2] yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishning maqsadlari sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu ustuvor maqsadlar umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mazmuni, tamoyillari, metodikasi hamda pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat o'quvchilarga fan bilimlarini berish, balki ularni jamiyatda faol ishtirok etuvchi, mas'uliyatli va demokratik qadriyatlarni qabul qiluvchi shaxslar sifatida tarbiyalashga ham yo'naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. Ijtimoiy kompetensiya shaxsning jamiyat bilan samarali muloqot qila olish, ijtimoiy rollarni tushunish, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish qobiliyatini ifodalaydi. Fuqarolik kompetensiyasi esa o'quvchining demokratik qadriyatlarni qabul qilishi, huquqiy ong va mas'uliyatni his qilishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyati bilan bog'liq.

Nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish bir tomonlama o'qitish bilan cheklanmaydi; u o'quvchilarning faoliyati, muloqot tajribasi va amaliy ishlar orqali rivojlanadi. Shu bois, pedagogika fanida ushbu kompetensiyalarning nazariy asoslarini o'rganish va ularni ta'lim jarayonida samarali shakllantirish usullarini aniqlash dolzarb masala sifatida e'tiborga olinadi.

Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari — bu shaxsning jamiyat bilan samarali muloqot qila olish, ijtimoiy rollarni tushunish, huquqiy va axloqiy me'yorlarni hurmat qilish, shuningdek, jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyatidir. Ular shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va fuqarolik rivojlanishining markaziy elementini tashkil etadi va o'quvchining nafaqat bilimga, balki ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ijtimoiy kompetensiya shaxsning boshqalar bilan muloqot qilish, jamoaviy ishlarda samarali qatnashish, muammolarni konstruktiv tarzda hal qilish va o'z hissasini qo'shish qobiliyatini ifodalaydi. Fuqarolik kompetensiyasi esa demokratik qadriyatlarni anglash, qonuniylikni hurmat qilish, shaxsiy mas'uliyatni his qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'limning maqsadi jamiyat va davlat ishlarida faol, o'zining mustaqil fikriga ega, ilimli, bilimli, qaysi soha yoki kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar o'z kasbining ustasi bo'lgan intiluvchan, ijodkor, kashfiyotchi, bo'layotgan voqeliklarga tanqidiy baho berib o'z fikrlarini mustaqil ayta oladigan, tez o'zgarayotgan zamonga o'zining salohiyati bilan moslasha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muammosining dolzarbligi *hususida so'z yuritiladi.*

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, mamlakatimizda kelajak bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalaridagi faolligini oshirish masalalariga ilmiy-nazariy jihatdan e'tibor qaratila boshlandi. Ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida harakatchanligi va jamiyatning taraqqiyoti va yangilanishidan manfaatdorligi tufayli yoshlar o'ziga xos g'ayrat, tashabbuskorlik, barcha yangi va ilg'or narsalarga moyilligi bois, olib borilayotgan o'zgarishlar yo'lining ulkan bunyodkor salohiyatiga, asosiy ijtimoiy negiziga aylanishi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimida yoshlar: mamlakat

ijtimoiy-siyosiy hayoti barcha tomomlarini yangilash ijtimoiy negizi, jamiyatning mamlakat taqdiri va uning kelajagi uchun fuqarolik mas'uliyat hissi rivojlangan siyosiy faol qismini to'ldirib borish manbasi, jamiyat barqarorligini ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish zarur bo'lgan aholi toifasi sifatida qaralishi zarurligi ta'kidlab o'tildi[5].

Kompetentsiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik va metodik jihatlari, dars jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirish, rivojlantirish masalalari xorijda SH.Balli, K.Byuler, E.Benvenist, A.V.Xutorskoy, G.Spenser, A.Blum, rus pedagogikasida Ye.Rujjeva, A.Efremova, A.Zimnyaya, I.Baydenko, G.Sayaxovalar, o'zbek pedagogikasida N.Azizxo'jayeva, U.Begimqulov, R.Ishmuhamedov, M.Tojiyev, N.Muslimov, N.Turdiyev, O.Qo'ysinov, U.Mingboyev, G.Ibragimova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan, biroq o'quvchilarda ijtimoiy emotsional va fuqarolik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari monografik tadqiq etilmagan.

Fuqarolik tarbiyasi – bu o'quvchi-yoshlar tomonidan demokratik o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarini egallash, shaxsning siyosiy, axloqiy va huquqiy tanlovi, qonunlarga so'zsiz itoat etish, tartibni saqlash, davlat mudofaasi uchun mas'uliyatni his qilish, maqsadli, amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Fuqarolik tarbiyasining mohiyati shaxsning yuridik, ijtimoiy, axloqiy va siyosiy qobiliyatini his qilishga imkon beradi.

Muallif E.H.Xalilov huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning dolzarb muammolari haqida so'z yuritarkan, insonning jamiyatda yashab turib, undan xoli bo'lish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Shu sababli ijtimoiy majburiyatlarni ixtiyoriy va ongli ravishda bajarish – demokratiyani yanada rivojlantirish, ijtimoiy intizomni mustahkamlash, insonni tarbiyalashning zarur shartidir. Shu tufayli jamiyat oldidagi

mas'uliyatni anglab etish shaxsning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatidagi elementlardan biridir[6] deya ta'kidlaydi.

Shu o'rinda faollik tushunchasiga izoh berib o'tamiz. Faollik – shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zgartirishga qaratilgan muhim qobiliyatidir. Faollik ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lib, u insonning mehnat, o'qish, o'yin faoliyatlarida, shuningdek, shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon ilmiy psixologiyasi inson shaxsiy faolligining asosiy manbai uning ehtiyojlari deb tushuntiradi. Insonning ehtiyojlari biologik shartlanganlikdan tashqari moddiy va ma'naviy ko'rinishlardan iboratdir. Odamning ehtiyoji unga ta'lim va tarbiya berish jarayoniad shakllanadi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko'nikma, malaka, odat, ma'naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishish, ularni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. SHuning uchun odamning o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot darajasi bilan o'lchanadigan faoliyat shakli va turini egallashning faol, maqsadga yo'naltirilganligi, ma'lum rejaga asoslangan ijodiy ko'rinishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[7]. Fuqarolik tarbiyasi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim.

1. Huquq va erkinliklar-Fuqarolik tarbiyasi insonga o'zining asosiy huquq va erkinliklarini o'rganish va himoya qilishda yordam berishi kerak. Bu huquqlarga so'z erkinligi, fikr erkinligi, e'tiqod erkinligi, tenglik, adolatli sudlov huquqi va shaxsiy daxlsizlik kiradi.

2. Demokratiya Fuqarolik tarbiyasi demokratik qadriyatlarni o'rgatishi, demokratik jarayonlarda shaxslarning ishtirokini rag'banlantirishi kerak. Bu saylovlarda qatnashish, ovoz berish, nodavlat tashkilotlatiga a'zo bo'lish, norozilik bildirish huquqi kabi masalalar kiradi.

3. Majburiyatlar-Fuqarolik tarbiyasi shaxsning jamiyatdagi mas'uliyatini tushunishiga yordam berishi kerak. Bu majburiyatlarga soliq to'lash, atrof-muhitni

muhofaza qilish, yo'l-harakat qoidalariga rioya qilish, inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatdagi boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish kiradi.

4. Adolat-Fuqarolik tarbiyasi insonlarga adolat tushunchasini tushunishga yordam berishi kerak. Bunga qonunning teng qo'llanilishi, adolatli sudlov, inson huquqlari va qonun ustuvorligi kabi masalalar kiradi.

Hozirgi yillarda O'zbekiston hududida fuqarolik tarbiyasi juda ham tuzatishlarga muhtojdir. Nima sababdan deganda o'z fuqarolik huquqlarini tushunmaydigan, bilmaydigan oilalar ko'payib bormoqda. Shu sababli fuqarolik tarbiyasi nima ekanligini jamiyatning ko'p sonli qismi bilishmaydi va hech qanday tushunchalarga ham ega emaslar. E'tibor berilgan bo'lsa ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda davlat siyosatida birinchi o'rinda fuqarolik tarbiyasi, vatanni sevish, jamiyatni hurmat qilish kabi g'oyalar ustuvor hisoblanadi. Misol uchun Yaponiyaning juda ham tezlikda taraqqiy etganiga nazar tashlaydigan bo'lsak ularda xalqning juda jipslashib birikkaniga, xalq o'z vatanini qadrlashiga va fuqarolik tarbiyasi yuqori cho'qqidaligiga guvoh bo'lamiz.

Tadqiqotchi N.Saburov[8] fuqarolik faolligini ijtimoiy-huquqiy faollikning turi sifatida tahlil etadi. Uning ta'riflashicha, fuqarolik faolligi ijtimoiy faollikning tarixan muayyan sifatini, aniqroq aytganda, asosiy faoliyatni amalga oshirishning faollik darajasini yoki insonning asosiy kuchlarini ishga solish darajasini, shuningdek, ixtiyoriy faoliyatning unga mos keluvchi shaklini tavsiflaydi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashda «Tarbiya» fanining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari kattadir. Chunki «Tarbiya» fanini o'qitishda o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinadi, fanning mazmuni o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga qaratiladi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, media-

mahsulotlardan unumli foydalanish uchun didaktik ta'minot hamda pedagogik shart-sharoitlar yaratiladi.

O'z taqdiriga befarq bo'lmagan qaysi jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa-deb ta'kidlaydi o'zbek olimi M.Quronov, - o'sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e'tibor keskin kuchayib, tarbiya- jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi, deya tan olinadi[11]. SHuningdek, muallif zamonaviy maktab o'zbek xalqining eng go'zal fazilatlaridan bo'lgan milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, vatanparvarlik, milliy odob, sof vijdon, milliy g'oyani o'z yo'l ko'rsatkichi qilib olib, yagona Vatan – O'zbekistonning dunyo miqyosidagi sharafiga xizmat qila oluvchi o'g'il-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab etishtirishi lozimligini ham aytib o'tadi.

«Tarbiya» fani 10 – 11-sinflarda 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi belgilanganligini nazarda tutadigan bo'lsak, bu yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlikni yuksak axloqiy fazilat sifatida rivojlantirish va ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadini amalga oshirish uchun eng samarali bosqich bo'lishi mumkin.

Bu maqsadni amalga oshirishda "Tarbiya" fani o'qituvchilari ta'lim –tarbiya mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitishlari, ilg'or horijiy tajribalarni tatbiq etish, zamonaviy axborot hamda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishlari zarur.

Ana shundagina mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirishda, avvlo, kelajakka ishonchni, vatanparvarlik, halollik va fidoyilikni tarbiyalash kabi maqsadlarga erishish mumkin bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda vatanga e'tiqod, fuqarolik tuyg'ularini shakllantirishning huquqiy, ijtimoiy-pedagogik va psixologik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etildi.

Jumladan, E.M.Kadirov jamiyatning dinamik o'zgarishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlar o'z qarashlari, qiziqishlari, qadriyat va manfaatlari orqali jamiyatdagi o'zgarish hamda islohotlarni boshidan kechirishini tadqiq etib, aynan o'spirin yoshlarning hayotiy pozitsiyasi va uning ijtimoiy qiyofasining qandayligi bevosita jamiyat rivojiga bog'liq bo'lsa, yoshlar huquqiy va siyosiy madaniyatining yuksakligi, ular ijtimoiy faolligi mamlakatimiz taqdirini belgilab beruvchi omil ekanligini asoslab bergan[9].

Zamonaviy o'qituvchi fuqarolik tarbiyasida innovatsion pedagogik yondashuvlardan keng foydalanishi lozim. Jumladan, muammoli ta'lim, loyiha asosidagi o'qitish, bahs-munozaralar, rolli o'yinlar, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali o'quvchilarda mas'uliyat, mustaqillik va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirish mumkin. Bu metodlar o'quvchilarni fikrlashga, muammolarga yechim topishga, hamkorlikda ishlashga o'rgatadi.

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarni sinfdan tashqari faoliyatlar — tadbirlar, ijtimoiy loyihalar, ko'ngillilar harakatlari, mahalla yoki maktab kengashlari ishlariga jalb etish orqali ham fuqarolik kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Bunday faoliyatlar o'quvchilarda jamoatchilik ruhini, birdamlikni, rahbarlik ko'nikmalarini va vatanparvarlik tuyg'usini oshiradi.

XULOSALAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyati qurishda faol hayotiy pozitsiyasini egallay oladigan chinakam vatanparvar yoshlarni tarbiyalash ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Buning uchun milliy mafkura va istiqlol g'oyasini singdirish orqali o'quvchi-yoshlarda porloq kelajakka intilish va qat'iy ishonch tuyg'usini shakllantirishga alohida ahamiyat berildi. Chunki milliy mafkuramizga aks etgan bunyodkor va xalqchil g'oyalar fuqarolarni faol harakatga undaydi, yaxshi va saodatli kunlarga ishonch hissini uyg'otadi.

Yosh avlodda o'z millatidan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish, Vatanning muqaddasligini chinakam iymon-e'tiqodga aylantirish buyuk mamlakatimizning buguni, ertasi va istiqbolini porloq bo'lishi, jahonhamjamiyatida o'z o'rni va nufuzini mustahkam egallashiga kafil bo'la oladi.

FOYDANALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya KONSEPSIYASI. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 1059-son qaroriga 1-ILOVA.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» GI PF-60-sonli Farmoniga 1-ilova
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi PF-5106-son Farmoni.
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: «O'zbekiston», NMIU, 2017 y. – 91-bet.
5. Musurmonova O., Qirg'izboyev A., Jamoldinov O., Yo'ldosheva S., Riskulova K., Atayeva G. Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar ma'naviyatini shakllantirish. – T.: "Fan va texnologiya", 2014. - 128 b.
6. Xalilov E.H. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o'rni. – T.: "O'zbekiston", 1997. -48 b.
7. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Darslik / Toshkent. O'zMU "Universitet" nashriyoti, 2002 y. – 138 b.
8. Saburov N. Shaxs siyosiy-huquqiy faolligi – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili / Monografiya. – T.: TDYUI, 2009, - 6 b.
9. Kadirov E.O. Yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish masalalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida): Yuridik fanlari doktori (DSc). ... diss. Avtoref. – Toshkent, 2019. -57 b.
10. Akramov A.A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dok. diss. Avtoref. – Toshkent, 2016. – 78 b.
11. Milliy tarbiya/ M.Quronov. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi. Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: Ma'naviyat, 2007, -6-b.